



IMPROVING THE INSTITUTE OF COMPENSATION FOR PROPERTY DAMAGE CAUSED BY CRIME

Nilufar Yuldosheva

Tashkent State Transport University
4th year student, Faculty of Economics

ABSTRACT

The fact that the scale of crime and the damage caused by it are increasing year by year in the world, that “cybercrime alone caused material damage to victims in the amount of \$ 8.44 trillion in 2022, most of which remained uncompensated,” and the inability to determine the total amount of damage caused to victims worldwide today limits the ability to know its overall scale, creates the need to pay special attention to this issue. The establishment of international standards, such as UN General Assembly Resolution 40/34, entitled “Declaration of Basic Principles of Justice for Victims of Crime and Abuse of Power,” also shows the importance of this area. The fact that the property rights of individuals are being restricted as a result of the failure to take timely measures to ensure compensation for material damage caused by a crime indicates the need to pay special attention to the issue of establishing mechanisms that ensure compensation for damage caused by these individuals through quick, fair and accessible procedures. Research is being conducted around the world to introduce effective mechanisms to ensure compensation for damage caused by a crime, to ensure that the state compensates victims of crime for damage caused by the crime, to establish effective control over the timely implementation of measures to ensure its compensation by officials responsible for conducting criminal cases.

Keywords: property damage, compensation for damage, victims’ rights, civil claim, criminal liability, compensation, right of recourse, procedural security measures, seizure of property, court judgment, enforcement proceedings, restorative justice, state compensation fund, civil liability.



JINOYAT NATIJASIDA YETKAZILGAN MULKIY ZIYONNI QOPLASH INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH

Nilufar Yuldosheva

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Dunyoda jinoyatchilik ko‘lami va uning natijasida yetkazilgan zarar yildan yilga ortib borayotganligi, birgina “kiberjinoyatlar natijasida 2022-yilda jabrlanuvchilarga 8,44 trillion dollar miqdorida moddiy zarar yetkazilganligi va uning aksariyat qismi qoplanmasdan qolganligi”¹ hamda bugungi kunda dunyo bo‘yicha jabrlanuvchilarga yetkazilgan jami zarar miqdorini aniqlashning imkonsizligi uning umumiy ko‘lamini bilish imkoniyatini cheklayotganligi bu masalaga alohida e‘tibor qaratish zaruratini vujudga keltirmoqda. BMT Bosh Assambleyasining “Jinoyat va hokimiyat suiiste‘moli jabrdiydalari uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari deklaratsiyasi” deb nomlangan 40/34-rezolyutsiyasi kabi xalqaro standartlarning belgilanishi ham mazkur yo‘nalishning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararining qoplanishini ta‘minlash choralari o‘z vaqtida ko‘rilmasligi natijasida shaxslarning mulkiy huquqlari cheklanayotganligi ushbu shaxslarga tez, adolatli va qulay bo‘lgan jarayonlar orqali zararining qoplab berilishini ta‘minlovchi mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish masalasiga alohida e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:

mulkiy ziyon, zarar qoplash, jabrlanuvchi huquqlari, fuqaroviy da‘vo, jinoiy javobgarlik, kompensatsiya, regress talabi, protsessual ta‘minot choralari, mol-mulkni xatlash, sud hukmi, ijro ishi, restorativ adliya, davlat kompensatsiya jamg‘armasi, fuqaroviy-huquqiy javobgarlik.

АННОТАЦИЯ

¹ URL: <https://www.statista.com/chart/28878/expected-cost-of-cybercrime-until-2027>



. Тот факт, что масштабы преступности и причиняемый ею ущерб ежегодно растут во всем мире, что «только киберпреступность в 2022 году причинила жертвам материальный ущерб в размере 8,44 триллиона долларов, большая часть которого осталась невыплаченной», а также невозможность определить общую сумму ущерба, причиненного жертвам во всем мире, ограничивает возможности оценки его масштабов, обуславливают необходимость уделять особое внимание этой проблеме. Установление международных стандартов, таких как резолюция Генеральной Ассамблеи ООН 40/34 под названием «Декларация основных принципов правосудия для жертв преступлений и злоупотребления властью», также свидетельствует о важности этой области. Тот факт, что права собственности отдельных лиц ограничиваются в результате неспособности своевременно принять меры по обеспечению компенсации материального ущерба, причиненного преступлением, указывает на необходимость уделять особое внимание вопросу создания механизмов, обеспечивающих компенсацию ущерба, причиненного этими лицами, посредством быстрых, справедливых и доступных процедур.

Во всем мире проводятся исследования с целью внедрения эффективных механизмов обеспечения компенсации за ущерб, причиненный преступлением, обеспечения выплаты государством компенсаций жертвам преступлений за причиненный ими ущерб, а также установления эффективного контроля за своевременным исполнением мер по обеспечению такой компенсации должностными лицами, ответственными за ведение уголовных дел

Ключевые слова: имущественный вред, возмещение вреда, права потерпевшего, гражданский иск, уголовная ответственность, компенсация, регрессное требование, процессуальные меры обеспечения, арест имущества, судебный приговор, исполнительное производство, ресторативная юстиция, государственный компенсационный фонд, гражданско-правовая ответственность.

1. Kirish



. Huquqiy demokratik davlatda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning eng muhim kafolatlaridan biri – jinoyat natijasida yetkazilgan zararni to‘liq va o‘z vaqtida qoplashdir. Jinoyat sodir etilishi nafaqat jinoiy javobgarlikni, balki fuqaroviy-huquqiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, jabrlanuvchiga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash masalasi jinoyat protsessining muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida zarar yetkazish oqibatlari hamda uni undirish tartibi belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi normalari ham zarar qoplashning umumiy asoslarini mustahkamlaydi.

Biroq amaliyotda jabrlanuvchilarning huquqlarini tiklashda qator muammolar mavjud bo‘lib, mazkur institutni takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

1. Mulkiy ziyon tushunchasi va huquqiy tabiati

Mulkiy ziyon — bu jinoyat natijasida jabrlanuvchining mol-mulki kamayishi, yo‘qotilishi yoki zarar ko‘rishi, shuningdek, olinmay qolgan daromad (yo‘qotilgan foyda) shaklida namoyon bo‘ladigan moddiy zarar hisoblanadi.

Huquqiy jihatdan mulkiy ziyonni qoplash:

jinoyatning oqibatini bartaraf etish;

jabrlanuvchining buzilgan huquqini tiklash;

aybdorning moddiy javobgarligini ta’minlash;

jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mazkur institut jinoiy javobgarlik bilan bir qatorda, fuqaroviy-huquqiy javobgarlik elementlarini ham o‘zida mujassam etadi.

2. Amaldagi tartib va muammolar



Amaldagi qonunchilikka ko'ra, jabrlanuvchi jinoyat ishi doirasida fuqaroviy da'vo kiritish huquqiga ega. Sud hukmi bilan bir vaqtda zarar undirish masalasi ham hal etiladi.

Ammo amaliyotda quyidagi muammolar kuzatiladi:

Zarar miqdorini aniqlashdagi qiyinchiliklar – ekspertiza jarayonining cho'zilishi yoki noto'g'ri baholash.

Aybdorning mol-mulkiga taqiq qo'yilmasligi – tergov bosqichida ta'minot choralarining yetarli qo'llanmasligi.

Ijro bosqichidagi muammolar – sud qarori mavjud bo'lsa-da, real undirish mexanizmining sustligi.

Davlat kompensatsiya mexanizmining cheklanganligi – ayrim hollarda aybdor zarar qoplashga qodir emas.

Natijada jabrlanuvchi real kompensatsiya ololmay qolishi mumkin, bu esa odil sudlov prinsipiga zid keladi.

3. Xorijiy tajriba va takomillashtirish yo'nalishlari

Ko'plab rivojlangan davlatlarda jabrlanuvchilarni himoya qilish bo'yicha maxsus kompensatsiya jamg'armalari mavjud. Masalan, ayrim Yevropa davlatlarida davlat dastlab zararni qoplaydi, keyinchalik regress tartibida aybdordan undiriladi.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1) Davlat kompensatsiya jamg'armasini joriy etish

Jabrlanuvchiga tezkor ravishda zarar qoplab berish va keyinchalik aybdordan regress asosida undirish tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

2) Tergov bosqichida mol-mulkni aniqlash mexanizmini kuchaytirish

Aybdorning aktivlarini aniqlash va ularga taqiq qo'yishning samarali tizimini joriy etish zarur.

3) Sud qarorlarini ijro etish mexanizmini takomillashtirish



Majburiy ijro byurosi faoliyatini raqamlashtirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

4) Fuqaroviy da'voni ko'rib chiqish jarayonini soddalashtirish

Jinoyat ishi doirasida zarar undirish bo'yicha alohida protsessual muddatlar va soddalashtirilgan tartibni joriy etish mumkin.

5) Restorativ adliya elementlarini kengaytirish

Jabrlanuvchi va aybdor o'rtasida kelishuv asosida zarar qoplash mexanizmini rivojlantirish ijobiy samara beradi.

4. Institutni takomillashtirishning ahamiyati

Mulkiy ziyonni qoplash institutini rivojlantirish:

jabrlanuvchilarning ishonchini oshiradi;

jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi;

sud-huquq tizimining samaradorligini ta'minlaydi;

ijtimoiy adolat prinsipini mustahkamlaydi.

Zarar qoplash mexanizmining samarali ishlashi – jinoyat uchun javobgarlikning muhim tarkibiy qismidir. Respublikamizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlari himoyasini yanada kuchaytirishni, shuningdek jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarga yetkazilgan zararining qoplanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratishni ham nazarda tutmoqda. Xususan, Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida davlat jabrlanganlarga yetkazilgan zararining o'ri qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi bo'yicha qoidaning belgilanganligi, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish, qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash”² kabi vazifalarning belgilanganligi bunga yorqin misol bo'la oladi. O'zbekistonda ichki ishlar organlari surishtiruvchi va

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



tergovchilari tomonidan 2023-yilda tergovni tamomlangan jinoyat ishlari bo'yicha jami moddiy zarar miqdori 2022-yilgi ko'rsatkichga nisbatan 18,7 foizga, 2018-yilgi ko'rsatkichga nisbatan esa qariyb olti barobarga oshganligi, shuningdek ishni sudga qadar yuritish bosqichida zararning qoplanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi yarashuv, aybga iqrorlik bo'yicha kelishuv, xususiy ayblov institutlarining qo'llanilish ko'lami yildan yilga kamayib borayotganligi huquqni qo'llash amaliyotida jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq muammolar mavjudligini yaqqol tasdiqlaydi. Bu esa jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararning qoplanishini ta'minlashga doir jinoyat-protsessual qonun normalari hamda huquqni qo'llash amaliyotini zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqish, ushbu sohadagi faoliyatni tartibga solishni nazarda tutuvchi yangi mexanizmlarni joriy etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850-son "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-son "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 24-avgustdagi PF-198-son "MulK huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari, 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PQ-105-son "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari



hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Xulosa

Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash instituti jinoiy odil sudlov tizimining ajralmas elementi hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda mazkur masala yetarli darajada tartibga solingan bo'lsa-da, amaliyotdagi muammolar uni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Davlat kompensatsiya tizimini yaratish, ijro mexanizmlarini kuchaytirish hamda tergov bosqichida ta'minot choralarini keng qo'llash orqali jabrlanuvchilarning huquqlari yanada samarali himoya qilinadi.

Natijada jinoyat-huquqiy siyosatning asosiy maqsadi — adolatni qaror toptirish va buzilgan huquqlarni tiklash — to'liq ta'minlanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent.
3. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti.
4. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: TDYU

Internet manbalari

1. www.lex.uz
2. www.sud.uz